

TALIMDA O'YNASH EMAS, O'YLASH KERAK

Sirdayo viloyati

*Yangiyer Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat Salomatligi Texnikumi xirurgiya fani oqituvchisi
Abdullayeva Rano Norboyevna*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim usullari, muammoli ta'lim, ta'lim jarayonida o'ynab emas balki o'ylab ish qilish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Ma'rifat, ta'lim, ta'lim metodi, ta'lim usullari, zamonaviy ta'lim, ta'lim jarayoni.*

Agar inson ilm nuri bilan o‘z yo‘lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko‘chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma’rifat bilan baquvvat bo‘ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo‘ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko‘rgan emas. Ilmni egallab olish esa bir san’atdir. Davlatimiz rahbari deyarli har bir chiqishida, aholi bilan muloqotida yoshlar masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Ularni mamlakatimiz buguni va kelajagida tutgan muhim o‘rniga urg‘u beradi. Binobarin, yurtimizda navqiron avlod vakillarining zamonaviy bilimlarni egallashlari, “nou-xau”lar bilan hamnafas qadam tashlashlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. O‘ziga ishongan, intiluvchan, ilmga tashna o‘g‘il-qizlar uchun “sotsial lift”, meritokratiya tamoyillari hayotga samarali tatbiq etilyapti. Chunki taraqqiy etgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 50 foizidan ortig‘i “bilimlar iqtisodiyoti” hisobidan, ya’ni, innovatsiyalar va yuqori malakali kadrlar tomonidan yaratilayotganidan ko‘pchilikning xabari bor. Keyingi qisqa muddat davomida, mamlakatimizda Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan ilm-fan va texnika taraqqiyotiga alohida e’tibor berilib, pedagoglar, olimlar va professor-o’qituvchilarning jamiyatdagi obro’li mavqeini tiklash, ularning turmush darajasini yanada oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloq qilish borasida ko’plab Farmonlar, Qarorlar qabul qilindiki, ularning bajarilishi bugunning o‘zidayoq samara bera boshladi. Hozirgi kunda shiddat bilan yuz berayotgan ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar ta’lim sohasida ham tub islohotlar o‘tkazishni, ta’lim-tarbiyaviy ishlarni davr talablari darajasiga olib chiqishni taqozo etmoqda. Shu boisdan ham «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning «Uzlusiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari» qismida ta’limning ijtimoiylashuvi – ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish alohida qayd qilinadi. Milliy dasturda ko‘zda tutilganidek, o‘quvchilarning estetik ongini shakllantirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, ayniqsa, tasviriy san’atdan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Inson qadim-qadimdan san’at vositalari yordamida o‘z hayotini go‘zal qilishga intilgan. Buni anglash uchun avlodlarimizdan meros qolgan me’moriy-madaniy yodgorliklar va tasvirlarga diqqat bilan nazar tashlash kifoya qiladi. ularning barcha-barchasini rassom, me’mor mehnati mahsuli deyishimiz mumkin.

Ta’lim berish usuli, ta’limiy maqsadni amalga oshirish bo‘yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining murakkab jarayonining asosi hisoblanadi.

Usullar: ushbu ta'lim berish davridan chiqqanda ta'lim oluvchi bilishi, udallashi va qadrlashi lozim bo'lgan ko'zlanayotgan natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonida to'g'ri usul tanlar ekanmiz, ko'zlangan natijaga komil ishonch va qisqa yo'l bilan erisha olamiz. O'qitishning samarali borishi, o'quvchi-talabalarning har bir fanni chuqur o'zlashtirib olishlari, Shuningdek ular bilimlarni ongli va mukammal egallashlari uchun hamda yoshlarda mustaqil va ijodiy faoliyat-fikrlarining rivojlanishiga bevosita o'qituvchining ta'lim usullaridan keng va mohirona foydalana olishiga bog'liqdir. Pedagogika tarixidan, pedagogika amaliyotida ham o'qitish usullarining juda katta boyligi to'plangan.

Ta'lim usuli deganda, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatları tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-talaba faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Demak, o'qitish usullari har ikkala faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan yo'llarni, usullarni o'z ichiga oladi. Ammo, har ikkala faoliyat ham hamisha bir xil va bir yo'nalishda bo'lavermaydi. Dars jarayonida o'tiladigan mavzuning xarakteri, mazmuniga qarab, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati turlicha yo'nalishda bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayonida ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning turlicha bo'lishi yangi-yangi usullarni keltirib chiqaradi.

Ta'lim usullari, o'qituvchining o'qitish faoliyati tug'risida o'tmishda ham, jumladan Markaziy Osiyo olimlarining asarlarida alohida asoslab berilgan. Abu Nasr Forobiyning «Fan va san'atning afzalligi» risolasida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar mukammal ifodalangan. Olim o'zining o'qitish metodlari haqidagi fikrlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga aniq ishontirish kerakligini o'qtirgan.

Ta'lim usuli - ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalilanilgan bo'lishi mumkin. Va aksincha, xuddi shu metod turli o'qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

Masalan, o'qituvchilar tomonidan ko'p qo'llaniladigan mashq manbasiga ko'ra amaliy metod hisoblansa, uni qo'llash esa bir nechta usullar (mashqning qoidasini o'qib berish (1-usul), bittasini namuna sifatida bajarib ko'rsatish (2-usul), o'qituvchining namunasi asosida o'quvchilar tomonidan mashqning bajarilishi (3-usul), o'quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlarni tekshirish va xatolarini tuzatish (4-usul) va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi.

O'qituvchilarning ayrimlari esa, "metod" tushunchasining o'rniga "uslub" tushunchasini ham qo'llaydilar. Ammo "uslub" tushunchasi "metod" atamasining mohiyatini o'zida to'liq aks ettira olmaydi. Chunki uslub ko'proq xususiy (so'z borayotgan holatda aynan

o‘qituvchiga xoslikni ifoda etadi) tavsifga ega bo‘lib, aniq maqsadga erishish yo‘li sifatida xizmat qila olmaydi.

Muammoli ta’lim texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta’lim texnologiyasining asosi – insonning fikrashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o’stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta’limning bosh maqsadi – o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to’liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o‘rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo’llashda asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog’liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko’zda tutishlari kerak.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

- o‘qituvchi o‘quvchilarga dars mavzusi bilan bog’liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo‘lini topishni taklif qiladi;
- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;
- hal etish uchun yetarli bo’lmagan yoki ortiqcha ma’lumotlar bo’lgan yoki savolning qo’yilishi noto’g’ri bo’lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

- o‘qituvchi muammoni qo’yadi va o’zi yechadi;
- o‘qituvchi muammoni qo’yadi va uning yechimini o‘quvchilar bilan birgalikda topadi;
- o‘quvchilarning o’zlari muammoni qo’yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo’llaniladigan usullar:

- muammoni turli nuqtai-nazardan o’rganish, tahlil qilish;
- solishtirish, umumlashtirish;
- faktlarni aniqlash va qiyoslash;
- vaziyatga bog’liq xulosalar chiqarish;
- o‘quvchilarning o’zlari aniq savollar qo’yishi va boshqalar.

Muammoli ta’limning asosiy g’oyasi bilimlarni o‘quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo‘yicha o‘quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o’zlashtirilishini ta’minalashdan iborat.

O’zbekistonda muammoli ta’limni qo’llash bo‘yicha bir necha asrlar davomida maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanish asosida o‘quvchilarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatlari hamda go’zal nutq tarkib toptirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizzojayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" T. 2006
2. Yangi innovatsion usullardan foydalanish metodikasi.Jumayeva T-2017
- 3.O’qish darslarida yangi innovatsiyalar TDPU-2005
4. Pedagogik texnologiyalar. Abduraxmonova D.T-2008

-
5. Alyamovskaya V.G. “Qanday qilib sog‘lom bolani tarbiyalash kerak”. - M., 1993 yil.